

KOSON TUMANIDAGI R-26 KANALINI BETONLASHTIRISH ISHLARINI O'RGANISH VA TAHLILI

Mamarasulov Sobir Raxmonqul o'g'li

*Qarshi davlat texnika universiteti “Gidrotexnika inshootlari
va nasos stansiyalari” kafedrası assistenti*

Xursanov Shahzod Buron o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada R-26 kanalini betonlashtirish ishlari, betonlashtirishda qo'llanilgan yangi texnologiyalar va sug'oriladigan yer maydonlari, xarajatlar, beton qorishmasining to'ldiruvchilar haqida ma'lumot keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kanal, betonlashtirish ishlari, sug'orish, ekin maydonlari, rekonstruksiya, ta'mirlash jarayonlari.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о работах по бетонированию канала Р-26, новых технологиях, используемых при бетонировании, а также площадях орошаемых земель, стоимости и наполнителях бетонной смеси.

Ключевые слова: Канал, работы по бетонированию, орошение, посевные поля, реконструкция, ремонтные процессы.

Annotation: This article provides information about the concreting work of the R-26 canal, new technologies used in concreting, irrigated land areas, costs, and fillers in the concrete mix.

Key words: Canal, concreting works, irrigation, arable land, reconstruction, repair processes.

Kirish. Koson tumanidan o'tuvchi R-26 kanali 1985 yilda qurilgan. Umumiy uzunligi – 25,7 kilometr bo'lib, shundan 10,1 kilometri beton va 15,6 kilometr qismi tuproq o'zanli. Suv o'tkazish qobiliyati – 44,0 m³/s tashkil qiladi. Ushbu kanal orqali tumandagi Chiroqchi, Surxon, Jarqum, Maydayobi, Andabozor hududlaridagi 16 ming 875 gektar ekin maydonlari sug'oriladi.

2024-yilda dastur asosida R-26 kanalining PK0+00 dan PK156+00 gacha 15,6 kilometr qismining beton qoplamasini rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi. Natijada kanalning foydali ish koeffitsiyenti 65 foizdan 90 foizgacha ko'tarilib, suvning tezligi oshishi hisobiga filtratsiyaning oldi olinishi natijasida yiliga o'rtacha 13,5 million m³ suv iqtisod qilinib, fermer xo'jaliklari hamda aholining 16 ming 875 gektar yer maydonlari kafolatli suv bilan ta'minlanishiga erishildi. Suvni tejash, undan oqilona foydalanish tabiiyki qishloq xo'jaligini suv resurslari bilan barqaror ta'minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, betonlashtirish borasida boshlangan ishlar ham o'z natijasini

bermoqda. Joriy yilda viloyatda ushbu tadbirlar natijasida oʻrtacha 350 million kub metrgacha suv iqtisod qilingani esa fikrlarimiz isbotidir.

Viloyatda bu boradagi ishlar davom ettirilib, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etishga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu esa pirovard natijada qishloq xoʻjaligida mahsuldorlikni oshirish hamda sugʻoriladigan ekin maydonlarining meliorativ holatini saqlanibi qolishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Koson R-26 kanali Qashqadaryo viloyatidagi sugʻorish tarmoqlaridan biri boʻlib, Qarshi magistral kanalining bir qismi hisoblanadi. Qarshi bosh kanali PK 144+00 dan PK 1197+00 gacha toʻgʻridan-toʻgʻri R-26 kanaliga ulanadi. Ushbu kanal orqali viloyatning Koson, Qarshi, Kasbi, Nishon va Muborak tumanlaridagi jami 218 000 gektar sugʻoriladigan yerlar suv bilan taʼminlanadi. Qarshi magistral kanali PK 366+00, PK 539+00, PK 792+00, PK 868+74 (Dyuker).



1-rasm. R-26 kanalini betonlashtirish jarayoni

Muammo. R-26 kanali qurilganidan beri kapital taʼmirlanmaganligi evaziga kanalning PK0+00 dan PK-156+00 gacha 15,6 kilometr qismining beton qoplamalari yaroqsiz holga kelib qolgan. Shu sababli kanalga loyiha miqdoridagi suvni oʻtkazish imkoniyati yoʻqolib, kanalning foydali ish koeffitsiyenti 65

foizga tushib qolgan. Natijada ushbu kanalga bog‘langan fermer xo‘jaliklari va aholi tomorqa yer maydonlarini kafolatli suv bilan ta‘minlashda muammolar vujudga kelib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hosildorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan edi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida, 2024 yilda R-26 kanalini betonlashtirish ishlari boshlangan. Bu ishlar doirasida kanalning tuproq o‘zanli qismlarini beton qoplama bilan yangilash orqali suv yo‘qotilishini kamaytirish va sug‘orish samaradorligini oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, Xitoyning "CITIC Construction" va "China CAMC Engineering Co., Ltd" kompaniyalari bilan hamkorlikda Qashqadaryo viloyatidagi 26 ta, umumiy uzunligi 319,9 kilometr bo‘lgan kanallarni, jumladan, Koson tumanidagi "R-21" va "R-25" kanallarini betonlashtirish bo‘yicha kelishuvga erishilgan. Bu loyihalar amalga oshirilishi natijasida har yili millionlab kub metr suvni tejash va minglab gektar ekin maydonlarida suv ta‘minotini yaxshilash imkoni paydo bo‘ladi.

Xulosa. Suvni tejash, undan oqilona foydalanish tabiiyki qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan barqaror ta‘minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, betonlashtirish borasida boshlangan ishlar ham o‘z natijasini bermoqda. Joriy yilda viloyatda ushbu tadbirlar natijasida o‘rtacha 350 million kub metrgacha suv iqtisod qilingani esa fikrlarimiz isbotidir. Koson tumanining o‘nlab hududlari suv xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan R26 kanalining umumiy uzunligi 25 km tashkil etadi. Maydayobu, Surxon, Chiroqchi, Mulali va ularga tutash hududlar qishloq xo‘jaligi ekinlari aynan shu kanaldan sug‘oriladi. Ammo kanalni betonlash suvni tejashda bugun muhim va dolzarb bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-56 b.
2. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Yangiyev A., “Gidrotexnika inshootlari” 2-jild Qarshi “Intellect” nashriyoti 2023 y
3. Majidov J, Fayziyev X, Husanxodjayev O‘, Raxmatov N “Gidrotexnika inshootlari” 1-jild “Ijod pres” Toshkent 2019-yil.
4. Bakiyev M.R., Majidov J., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Raxmatov M. “Gidrotexnika inshootlari” 2-jild. Toshkent: “Ta‘lim nashriyoti”, “Iqtisod-moliya”, 2009 y
5. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma‘lumotlaridan foydalanilgan.

Internet resurslari:

www.ziynet. uz.
www. edu. uz.
www.ziyo.net